



# ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

## xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

# MATERIALLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

# ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Вогоявленская Д. Психология творческих способностей: Учебное пособие для студентов вузов. Москва: Издательский центр «Академия», 2002. – С. 320.
2. Кузьмин Н.Н. Единство теории и практики как общий принцип профессиональной подготовки будущего учителя / Н.Н. Кузьмин // Профессионально-педагогические умения и пути их формирования. – Воронеж: ВГПИ, 1985. – С. 7-20.
3. Olimov Sh., Ma'murova D. Directions for improving teaching methods. Journal of Positive School Psychology 2022, Vol.6, № 4. – P. 9671–9678.
4. Shaydullayeva K. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik tafakkurni rivojlantirish zarurati. Ijodkor o'qituvchi jurnali. 5-iyun , 2023 yil, 30 - son. 228-bet.

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA  
INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH OMILLARI**

**M.A.Jumayeva,**

Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning axborot texnologiyalarini yaratish va takomillashtirib borish ishlarini ketma-ketlik asosida olib borilishi haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

**Abstract:** In this article, there are opinions about the creation and improvement of information technologies for preparing future teachers for innovative activities.

Hozirgi sharoitda milliy ta'lim tizimlari rivojlanishi quyidagi bir qator omillar bilan belgilanadi: bir tomonidan, ta'lim inson faoliyatining muhim sohalaridan biri bo'lib qoldi, ikkinchi tomonidan esa jamiat hayotida ta'lim rolining oshishi iqtisodiy rivojlanishning yangi yo'nalishlari paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Hozirda o'qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashga talab kun sayin oshib bormoqda, shu sababli mamlakatimiz taraqqiyoti ilm-fan, texnika-texnologiyalar rivoji hozirda bardavomlik kasb etmoqda. Shuning uchun oliy ta'lim muassasasida pedagoglarni tayyorlashga zamonaviy ilm-fanning so'nggi yutuqlariga asoslangan talablar qo'yib borilishi tabiiy. Bular bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy raqobatbardosh qilib, ya'ni innovatsion rivojlangan qilib tayyorlash davr talabi ekanligini ko'rsatmoqda. Bunday talablarni bajarish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak bo'ladi:

1. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kreativ yondashuvni rivojlantirish.

Ta'lim jarayoni ko'p bosqichli dinamik jarayon sifatida qaralib, ta'lim metodlari va texnologiyalari zamon bilan hamnafas yangilanib borayotgani hisobga olinadi, shuningdek, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga har qachongidan ham ko'proq e'tibor berish doimiy faoliyatga aylanadi. Innovatsion metod va texnologiyalarni amaliyatga joriy etishda ko'rib chiqilayotgan ta'lim yo'nalishidagi o'quv rejasingin fanlar bloklari va ularning aloqadorligi hamda tayanch fanlar bilan integratsiyasi e'tiborga olinsa, mazkur soha bo'yicha istiqbolli pedagogik samara qo'lga kiritiladi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning axborot texnologiyalari tizimini shakllantirish va ularni yangi talablar asosida yanada takomillashtirib borishga erishish.

Bunda bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning axborot texnologiyalarini yaratish va takomillashtirib borish ishlari quyidagi ketma-ketlik asosida olib boriladi:

- o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini oshirishda komp`yuterlardan texnik-didaktik vosita sifatida foydalanish;

- bo'lajak o'qituvchilarni komp`yuterdan foydalanishining samarali shakllari bilan tanishtirish;

- bo'lajak o'qituvchilarda komp`yuterda ishlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning optimal yo'llarini topishga erishish;

## **Zamonaviy sharoitda oliv ta'lim pedagogikasi: nazariya va amaliyot integratsiyasi**

- bo'lajak o'qituvchilarni intellektuallashtirilgan o'qitish tizimlari va ularga mos holda ishlab chiqilgan muloqotli ishchi dasturlardan foydalanish ko'nikmalari bilan qurollantirish.

3. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bo'yicha innovatsion-integrativ majmualar tayyorlashga oid tadqiqot ishlarini doimiy olib borish.

Bunda ta'linda axborotli ta'lim muhiti, shuningdek, innovatsion ta'lim muhitlari negizidagi innovatsion-integrativ majmualar tayyorlashga istiqbolli yo'nalish deb qarash lozim bo'ladi. Ushbu jarayon an'anaviy ta'lim jarayoni bilan intellektuallashtirilgan ta'lim jarayonlari o'rtasidagi intellektuallashtirilgan interfeysni o'rnatish orqali amalgalash oshiriladi va bunda dasturlashtirilgan ta'minot nihoyatda zarurligini e'tiborga olib ish yuritishga to'g'ri keladi.

4. Innovatsion faoliyatni tashkil etish uchun o'qituvchining kasbiy intellektual salohiyati hamda muntazam yuksalishini doim e'tiborga olib faoliyat yuritish.

Bunda o'qituvchining o'z sohasiga oid fanlar asoslarini biliishi va ular bo'yicha egallagan bilimlaridan o'zi ta'lim beradigan fanni bayon qilishda samarali foydalanishi kerak, o'zi ta'lim beradigan fanlarga mos va xos innovatsion metod va texnologiyalar bilan qurollangan bo'lishi, muntazam ravishda jamiyatimiz va davlatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlardan xabardor bo'lishi, o'zi o'qitayotgan fan bo'yicha o'quv-metodik, o'quv-dasturiy, o'quv-didaktik, axborotli metodik ta'minotlar kabilalar bilan qurollangan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning o'quv-metodik axborotli ta'minotini mukammal yaratish. Bunda asosiylar e'tibor qayd etilgan ta'minotning zamonaviy taraqqiyot darajasi bilan mos ravishda yuksalib, takomillashtib borishiga qaratiladi va ularni quyidagi yo'nalishlarda amalgalash mumkin bo'ladi:

- bo'lajak o'qituvchilarning axborot kommunikatsion texnologiyalarni to'liq egallash jarayonida axborot madaniyati shakllanishini o'quv jarayoniga tatbiq etish;

- elektron o'quv adabiyotlari: elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, fan bo'yicha elektron portfel` va elektron qomusiy lug'at kabilarni tayyorlash;

- interfaol metodlar va ulardan amaliy faoliyatda foydalanishga "didaktik portfel'"tayyorlash;

- internetdan foydalanib ta'lim jarayoniga tegishli fanlar bo'yicha ma'lumotlar to'plash va shu kabilalar.

6. Kasbiy bilimlarni zamon talabi asosida muntazam takomillashtirib borishga erishish.

Bunda:- egallanishi lozim bo'lgan mutaxassislik bo'yicha bilimlarni uzlusiz ravishda oshirib borish va ularni yanada boyitish vostalaridan samarali foydalanishga erishish;

- pedagogik va axborot texnologiyalariga oid adabiyotlar bilan muntazam tanishib borish, ulardan amaliy-kasbiy faoliyatda og'ishmay foydalanish va shu kabilalar.

7. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda kreativ yondashuvga erishish.

Kreativ yondashuv quyidagilarga asoslansa, maqsadga erishishning optimal yo'li kafolatlanadi:

- bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning dolzarb muammolari nimalardan iborat ekanligini anglab olish;

- bo'lajak o'qituvchilarni o'z mutaxassisliklariga oid ilmiy-uslubiy, dasturiy-didaktik, dasturiy-axborotli ta'minot yaratish;

- oliv ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion tayyorlash bo'yicha ilmiy, ilmiy-uslubiy, innovatsion loyihalar bilan tanlovlarda qatnashish va ularni bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashga keng joriy etish borasida muntazam ijodiy faoliyat yuritish kabilalar.

8. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ularning ma'naviy yetuk va intellektual salohiyatlari bo'lishining muntazamligini ta'minlash.

Ushbu tarkibiy qismga qo'yilgan talablarni bajarish quyidagi jihatlarga e'tibor berish orqali amalgalash mumkin:

- bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy yetuklik tuyg'usini shakllantirish;

## **xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari**

---

- bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ta'lim dasturidagi fanlar bo'yicha va ularga tegishli ma'lumotlardan muntazam ravishda foydalanish;
- bo'lajak o'qituvchilarni o'qituvchi kasbining mas'uliyati, ya'nii jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;
- ma'naviy-ma'rifiy faoliyat bo'yicha turli mavzularda ma'naviy tadbirlarni tashkil etishning mukammal istiqbolli rejasini ishlab chiqish va ularni olib borishning innovatsion uslublarini yaratishga doimo e'tiborli bo'lish va hokazo.

O'qituvchining innovatsion faoliyati bu – tayyorlik darajasini, talabalar o'rtasida innovatsion madaniyatni shakllantirishga imkon beruvchi integrativ xususiyatdir. Professional sohada istalgan natija va tegishli darajaga erishish uchun bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashga har qachongidan ko'ra e'tiborni kuchaytirish zarur.

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni innovatsion faoliyatni rivojlantirish, kasbiy faoliyatni yanada takomillashtirish, uni kasbiy mahorat darajasiga ko'tarishdan boshlanadi. Bunday jarayon o'qitishning mazmuni va usullarini uzlusiz izlashga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim muhitini yaratish, innovatsion onglilik va zamonaviy o'qituvchining faoliyat modelini tuzish orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagilarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, pedagogik faoliyat samaradorligining ikki vektorini uning innovatsion xarakteri nuqtai nazaridan ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- o'qituvchi o'z faoliyatida allaqachon yaratilgan texnika va texnologiyalarni kasbiy faoliyatning real sharoitlariga moslashuvi bilan amalga oshiradi;
- o'qituvchi kasbiy faoliyatning ob'ektiv ravishda o'qitishning yangi metod, vosita va texnologiyalarini yarata oladi.

Demak, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash zamonaviy pedagogikada dolzarb va istiqbolli ijtimoiy muammo ekanligi ko'rinish turibdi. Innovatsion ta'limga yo'naltirilgan texnologiyalar keng qamrovli, murakkab, ijodiy, pedagogik faoliyat ekanligini muntazam diqqat markazda bo'lishi lozim. Chunki ular yordamida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning istiqbolli va samarali uslubiyatini yaratish mumkin hamda ular asosida raqobatbardosh innovatsion faoliyati rivojlangan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash kafolatlanadi.

Oliy ta'lim tizimida o'zgarishlar, yagona ta'lim makoniga O'zbekistonning kirishi natijasida, innovatsion faoliyatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan o'qituvchiga talab kun sayin oshmoqda. O'qituvchini kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimida milliy ustuvorliklarni ko'rib chiqish zarurligini belgilovchi omillar orasida uch guruhni ajratish mumkin.

Ta'limni modernizatsiyalash sabablaridan yana bir guruhi oliy ta'lim tizimidagi ijtimoiy-pedagogik o'zgarishlar bo'lib, u yangi ijtimoiy-texnologik inqilob tufayli yuzaga kelgan o'zgarishlar kontekstida yuz beradi. Zamonaviy ta'lim bir qator qiyinchiliklarga duch keladi, ulardan biri milliy ta'lim tizimlari innovatsion xarakterga ega bo'lishi va ularning o'quvchilari innovatsion turmush tarziga tayyor bo'lislari kerak. Bunday sharoitda o'qituvchilarning madaniyat, jamiyat va ta'limdagi progressiv innovatsion o'zgarishlarni qabul qilishga tayyorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Yuksak ijodiy salohiyatlari ustozgina jadal rivojlanayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli va samarali hayotga qodir insonni tarbiyalay oladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
3. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: O'zbekiston. NMIU, 2019. – 400 b.
4. Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – 180 b.

## **Zamonaviy sharoitda oliv ta'lim pedagogikasi: nazariya va amaliyot integratsiyasi**

5. Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005. – 157 b.
6. Jumayeva.M.A.Pedagogika fanini o'qitishda innovatsion faoliyatni rivojlantirish omillari. Buxoro - 2021. B. 60-62
7. Alimov A.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss... – T., 2018. – 142 b.
8. Jumayeva.M.A.Bo'lajak o`qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi ped.fan.dok.(PhD) diss.-Buxoro. 2022.yil.

## **TA'LIM OLISH HUQUQI O'ZBEKISTONDA UMRBOD TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA**

**Sharapov Shuxrat Shokirovich**

**O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazning mustaqil izlanuvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ta'lim olish huquqini umrbod ta'lim tizimini yaratishda markaziy o'rinni egallaydi va ta'limga bo'lgan qonuniy huquqlar doimiy shaxsiy va kasbiy rivojlanishni qanday qo'llab-quvvatlashini o'rganadi. Bu jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashadigan va individual imkoniyatlarni oshiradigan ta'lim asoslarini yaratishda siyosatning rolini ta'kidlaydi.

**Аннотация:** В данной статье право на образование рассматривается как ключевое значение для создания системы непрерывного образования, а также рассматривается, как законные права на образование способствуют непрерывному личному и профессиональному развитию. Это подчеркивает роль политики в создании образовательных рамок, которые адаптируются к меняющимся потребностям общества и расширяют индивидуальные возможности.

**Abstract:** O'zbekistonda ta'lim olish huquqi nafaqat insonning asosiy huquqi, balki umrbod ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning muhim vositasi sifatida ham ko'riladi. Ta'limga bunday yondashuv bilimga asoslangan global iqtisodiyotda mamlakat inson kapitalining uzluksiz o'sishini ta'minlash uchun juda muhimdir. Ushbu maqolada O'zbekistonda umrbod ta'lim tizimini rivojlantirishda ta'lim olish huquqining roli ko'rib chiqiladi, asosiy e'tibor siyosat asoslari, amalga oshirish strategiyalari va duch kelayotgan muammolarga qaratiladi.

O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishganidan buyon ta'lim sohasida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Hukumat samarali umrbod ta'lim tizimi milliy taraqqiyot uchun muhim ekanligini tan oldi va hayotning barcha bosqichlarida ta'lim olish imkoniyati va sifatini oshirishga qaratilgan islohotlarni boshladi (YUNESKO, 2019).

O'zbekiston uzluksiz ta'lim madaniyatini yuksaltirish bo'yicha milliy majburiyatni aks ettiruvchi, uzluksiz ta'limni takomillashtirishga qaratilgan qonunchilik asoslarini ishlab chiqishda faol harakat qilmoqda. Ushbu sohadagi asosiy huquqiy hujjat 1997-yilda qabul qilingan va keyinchalik qayta ko'rib chiqilgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun bo'lib, unda davlatning barcha fuqarolarga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash majburiyati bayon etilgan1.

Muhim islohotlar, xususan, 1997 yilda boshlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi orqali bu asosni yanada mustahkamladi. Ushbu dastur erta bolalikdan oliy ta'limgacha va undan keyingi davrda uzluksiz malaka oshirish va bilimlarni egallashni qo'llab-quvvatlovchi yaxlit ta'lim tizimini yaratishda muhim rol o'ynadi2. Bu kattalar ta'limi va kasbiy malaka oshirish uchun muhim bo'lgan turli norasmiy va kasbiy ta'lim imkoniyatlarini osonlashtiradi.

Bu boradagi sa'y-harakatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilishda Prezidentimizning 2019-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu farmonda

## **xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari**

---

M.A.Jumayeva, BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH OMILLARI.....	62
Sharapov Shuxrat Shokirovich. TA'LIM OLISH HUQUQI O'ZBEKISTONDA UMRBOD TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA .....	65
Katayeva Saodat Abduraxim qizi, KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASI VA UNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	67
M.A.Jumayeva, Asatova Mohichehra, BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN PROFESSOR O'QITUVCHILARNING KASBIY- PEDAGOGIK MAHORATI .....	69
Nekiyeva Umida Nematovna, BO'LAJAK O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATIDA KREATIVLIKNING AHAMIYATI .....	71
Ismailov Murodulla Kaxramonovich. BO'LAJAK IJTIMOIY ISH XODIMLARIDA SANOPEN REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING TAMOYILLARI .....	75
Rasulova Zilola Durdimurotovna. INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI.....	77
Nematova Nigina Nabiyevna, BO'LAJAK ZAMOVIY O'QITUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI .....	80
Zilola Tosheva, ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI.....	83
Boboyev Maqsud Mahmudovich. ASSESSMENT FOR STUDENTS 21 st CENTURY SKILLS .....	86
Sharipova Sitora Xaydarovna, OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	88
Samiyeva Shakhnoz Xikmatovna. IMPORTANT WAYS TO USE NEUROPEDAGOGICAL KNOWLEDGE IN TEACHING.....	94
Имамкулов Расул Рахманович, ПРОБЛЕМЫ ТЕХНОЛОГИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ В УСЛОВИЯХ БИЛИНГВИЗМА .....	96
N.B.Ismatova, Sh.Sh.Sharopov. BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYORLASHDA KOMPETENTLIK YONDOSHUVNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH .....	100
Лукмонова Саломат Гафуровна. ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.....	104
Yu.Z.Saidova. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "MA'NAVIYAT SOATLARI"NI O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI .....	107
N.B.Ismatova, TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILAYOTGAN TEXNOLOGIYALAR....	109
Норбаев Бахтиёр. CONDITIONS FOR EFFECTIVE SOCIO-EDUCATIONAL INTEGRATION OF STUDENTS INTO A FOREIGN LANGUAGE ENVIRONMENT .....	115
Shabon Muxamadovna Farmonova. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH.....	117
Русакова Н.Н. ОПЫТ ТРАНСПОЛЯЦИИ СИСТЕМЫ РАЗВИВАЮЩИХ СОЦИАЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗЛИЧНЫЕ УРОВНИ И ТИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ .....	120
Хусенова Фарангис, Султанова Р.М. ВЛАДЕНИЕ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКОЙ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ И КУЛЬТУРНОЙ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ В ИНОЯЗЫЧНОМ ДИДАКТИЧЕСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	122
Юнусова Раъно Гайбуллаевна. МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ .....	124